

MUG'TERA MUG'QALA QADIMGI SHAXAR, YODGORLIKDA OLIB BORILGAN TARIXIY VA ARXEOLOGIK IZLANISHLAR

Abdujabborov Kamoliddin Nabijon o'g'li

Qadimgi shahar va shaharmonand qishloqlar haqida gap ketganda o'troq aholining muqum bir joyda o'rnashib, uning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan joy, uning tevarak-atrofini mudofaa devorlari bilan o'rab olinishi esa, birinchidan, o'troq aholi turar-joy maskanini dushmandan, o'g'ridan, yirtqich va yovvoyi xayvonlardan saqlanish yoki begona kishilardan pana bo'lish maqsadida qilingan to'siqdir. Ikkinchidan, mudofaa devorlarining paydo bo'lishining tarixiy ildizlari juda chuqur, asosan bronza davriga borib taqaladi. Ayniqsa, mil. avvalgi II-ming yillikning o'rtalarida shimol va shimoli-sharqdan Xuroson va Movarounnahr hududlariga chorvador prototurkiy qabilalarning o'z chorva hayvonlarini boqish uchun yangi yaylovlar qidirish maqsadlaridagi migrasiyasi tufayli amalga oshirilgan. Aks holda ko'chmanchi chorvadorlarning bir necha atarlardan tashkil topgan chorva hayvonlari mahalliy aholi ekin-tikinlarini payxon qilar, mahalliy aholi boyligini talon-tarosh qilar, bu ham kamlik qilganidek, chorvador oriylar mahalliy aholining maftunkor g'ozal xotin va qizlarini zo'rlab olib ketib, yo cho'ri-xotinlikka olar, yoki o'zga yurt boylariga sotib yuborish bilan shug'ullanib kelganlar. Bundan toqati toq bo'lgan janubning mirishkor dehqonlari yashash makonlari atrofini mudofaa devorlari bilan o'rab olishga majbur edilar.

Mudofaa devorlarining rivojlanishi ilk o'rta asrlarda Farg'ona vodiysida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mudofaa qilingan qishloqning hamma tomoni, ayniqsa dushman hujum kutiladigan tomoni qalin devorlar bilan o'rab olganlar. Bu esa qachonki insonlaradda xususiy mulk egaligi paydo bo'lgan kezlardan boshlangan. Bunday bosqinchilik bilan qo'lga kiritilgan boylig birinchi navbatda urug' va qabila boshliqlari hamda ruhoniylar qo'lida to'plangan. Chunki, qabilalar aro urushlarda qo'lga kiritilgan o'ljalar jamoa a'zolari o'rtasida teng taksimlanmagan. Har bir jangchi spohiyga tegishli boylig jangchining bosqinchilik mahoratiga bog'lik bo'lib, jangchi otryadlar qayirmadan qolgan boylikka egalik qilishgan. Shuning uchun urug' va qabila sardorlari oddiy urug' va qabila jamoasida aloxida mavqe'ni egallaganlar. Urug' va qabila boshliqlari o'z oilalari uchun alohida uylar va qasrlar barpo ettirib, ularning atrofini mustahkam devorlar bilan o'rab olganlar.

Shunday qilib, xususiy mulkchilik orqali insonlarning shaxsiy uy-joylari va qasrlarining atrofini o'rab olish boshlangan. Shu tariqa mudofaa devorlari ham rivojlandi¹.

¹ Мухамедов Х. Ўзбекистоннинг қадимий муҳофа иншоотлари тарихидан. – Т., 1961. – Б.24.

Ana shunday jarayonda shakllangan irrigasiya rayonlaridan biri akademik A. Asqarov taklif etgan Kosonsoy irrigasiya rayoni bo'lib², ushbu irrigasiya rayoni qadimgi «Fragana» yoki «Farkana» davlati tarkibida bo'lgan arxeologik yodgorlik Mug'tepa (Mug'qal'a) dir. Qadimgi Koson «ko'chmanchi» va «o'troq» madaniyatlar tutashuvidagi chegarada joylashgan. Bu Farg'onaning Ershidan keyingi ikkinchi poytaxt va savdo shaharlaridan bo'lib, o'troq dehqonlar va ko'chmanchilar, harbiy siyosiy va iqtisodiy kuchlarni bog'lovchi simvol bo'lgan, degan fikrni professor A. Bernshtam o'rtaga tashlaydi. Keyinchalik boshqa tadqiqotchilar ham shunga yaqin fikr-mulohazalar bildirganlar. Mug'xona yodgorligi ham tuman tarixi uchun juda qimmatli va noyob tarixiy ma'lumotlar beradi. Mug'xona tumanning shimolida joylashgan bo'lib, eramizdan avvalgi III-II va milodiy V-VIII asrlarda o'tov shaklida qurilgan yuyechji qabilalarining Kosonsoy bo'yidagi shahri bo'lib, geografik jihatidan qo'shni davlatlar So'g'd va Choch o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajargan. Xukmdorlar yoz oylarida dam olishi uchun qulay bo'lgan va tabiati chiroyli maskan edi.

XX asrning 50 va 80- yillarida Mug'qal'ada qazishmalar o'tkazgan Yu. A. Zadneprovskiy ham Guyshan bu hozirgi Mug'qal'a qoldig'idir deydi. Ammo ba'zi olimlar bunga shubha bilan qaraydilar. Jumladan, arxeolog B. Matboboyev Qadimgi Koson hududidagi Mug'qal'a yodgorligi Guyshan bo'la olmaydi deb takidlaydi. Bizningcha, ushbu mulohazalarning har ikkisi ham fanda o'zining ilmiy tasdig'ini topmagan. Xitoycha «Beyshi» va «Suyshu» yilnomalarida *Boxanna* (Farg'ona) hukmdorligining boshqaruv markazi *Kunlun* (Pomir) tog'ining g'arbida, chamasi 250 km uzoqlikda joylashganligi, bu shahar qadimda *Gyuysuye* (*Gesay* Koson) deb atalib, boshqaruvchisining sulolaviy nomi *Chjaovu*, ismi esa *Alisi* ekanligi qayd etiladi³. Yuechjilar atrofidagi viloyatlarda 9 ta xonadonga bo'linib, Buxoro, Kesh, Choch va boshqa hududlarda ham o'z sulolasiga asos solishgan. Ushbu sulolalar orasida Samarqanddagi Chjaovu sulolasi 630- yillarda Farg'onaning Kibi ismli hukmdori G'arbiy turklar vakili Bahodur tomonidan o'ldiriladi⁴. Ushbu hukmdor Chjaovu sulolasiga mansub bo'lgan deb taxmin qilinadi. Bizningcha xitoy yilnomachilari tomonidan kelib chiqishi yuyechji, arab mualliflari tomonidan esa turk deb ko'rsatilgan Chjaovu xonadoni vakillari Markaziy Osiyolik qadimiy etnoslardan biriga ta'lluqli bo'lib, ularning asl kimligini aniqlash kelajakda chuqurroq izlanishlarni talab etadi. Fikrimizcha, Farg'onada haqiqatdan ham «tutuq» unvonli amaldorlar bo'lgan, faqat ular o'zlarining alohida sulolasiga asos solishgani aniq emas. Tutuq unvonli

² Аскарлов А.А. Қадимги шаҳар маданиятнинг шаклланиши ва илк давлатчилик масалалари // ЎИФ. №6.Т.- 1994. 6-11

³ Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах. II.-С. 274, 285; Хўжаев А. Суй шу ("Суй сулоласи тарихи")дан ("Тан сулоласининг янги тарихи")дан .Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия, 2/1. – Т.: Фан, 2014. Б. 24.

⁴ Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах. II. – С. 319; Малаевкин А.Г. Танские хроники о государствах... С. 188-189; Хўжаев А. Шин Тангшу. – Б. 27-28.

amaldorlarga Turk xoqonligining o'z vassallari vo ha hukmdorliklari boshqaruvchilarini xoqonlik nomidan nazoratdan tutish uchun yuborilgan vakil – noiblar sifatida qarash lozim⁵.

O'sha davr yozma va numizmatik materiallaridan anglashilicha, xoqonlik o'z vassallariga «tudun», «tutuq» kabi vakillar yuborib, ular orqali mahalliy boshqaruvchilarni nazoratda tutgan va soliq yig'imini tashkil qilgan⁶. Xususan, Tutuqlar xoqonlik tarkibidagi boshqa bir qator vassal hukmdorliklar va tobe qabilalar boshqaruvida bo'lganidek Farg'onada ham harbiy ma'muriyat boshlig'i hisoblangan bo'lishi mumkin⁷. Taniqli arxeologlar, sharqshunos, tarixchi olimlar N. Bryanov, N. Ya. Bichurin, M. S. Andreyev, A. N. Bernshtam, B. G'afurov, A. Asqarov, Yu. A. Zadneprovskiy, A. Anorboyev, B. Matboboyev va boshqalar Koson shahrining paydo bulishi tarixi qudratli Kushoniylar saltanati tarixi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab, uning tarixi 2000 yildan ziyodroqni tashkil etadi, degan xulosaga kelishgan. 1946 va 1948 yillarda Koson shahrining shimolida joylashgan qadimiy Mug'qal'a xarobalarida qazishma va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan arxeolog olim A. N. Bernshtam «Qadimiy Farg'ona» kitobida shunday yozadi: «O'sha davrning (mil. avv. II asr) siyosiy markazi Shimoliy Farg'onada joylashgan qadimgi Koson shahri, Guyshan yoki Kushon shahri bo'lgan. Uning qoldiqlari hozirgacha saqlanib qolgan.

Xulosa. Ikki yodgorlikni qurilishi va faoliyat yuritish davrini aniqlash uchun keramika materiallar yetarli emas. Hozirda mavjud sopol buyumlarga asoslanib, oldingi tadqiqotchilar qal'ani VI-VIII-asrlarga tegishli deb hisoblashgan. Bizning va avvalgi tadqiqotchilarimiz tomonidan olib borilgan arxeologik ishlar natijalarini sar hisob qilar ekanmiz, qal'a Turk xoqonligi davrida to'liq qurilib bitkazilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анарбоев А. А. Аксикент столица Ферганы "Тафаккур", из, Ташкент-2013
2. Асқаров А.А. Ўзбек давлатчилигининг илк босқичларида қадимги Фарғона Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари. I жилд. Фарғона, 2000.
3. Хўжаев. А. Фарғона тарихига оид маълумотлар "Фарғона" наширёти, Фарғона, 2013
4. Матбобоев. Б. Фарғона ва чоч илк ўрта асрда ижтимоий-иқтисодий ривожланиш аналаръ. ЎзРес. Ф. А. . Фан. наширёти. Тошкент, 2004
5. Асқаров А. А. Қадимги шаҳар маданиятнинг шаклланиши ва илк давлатчилик масалалари. ЎИФ. №6. 1994.
6. Бернштам А. Н. Дневник. Архив иимк ран. Ленинград. Ф35 Д158.-Л, 1948
7. Заднепровский Ю.В. А. Отчет о работе Ферганской экспедиции в 1983 г.

⁵ Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари ... Б. 14.

⁶ Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах ... I. С. 283; Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. İstanbul: Selenge, 2007. S. 53.

⁷ Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Т.: Фан, 1992. Б. 26.